

**TEXNIK TARJIMADA MAXSUS ATAMA VA IBORALAR**

*Rashitkhodjayeva Aziza,  
O‘zDJTU 2- bosqich magistranti  
Ilmiy rahbar: Azzamov Y.R (PhD)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sinxron texnik tarjimada texnik atama va iboralarining o‘rni, ularni tarjima qilish jarayonidagi muammolar va yechimlari ko‘rib chiqiladi. Sinxron tarjima texnik matnlarni o‘z vaqtida, ya’ni nutqning aytilishi bilan bir vaqtda tarjima qilish zaruratini tug‘diradi, bu esa tarjimonlardan yuqori malaka va bilim talab qiladi. Shuningdek, maqolada Elon Muskning TED konferensiyasidagi texnologik innovatsiyalar va muhandislik yutuqlariga bag‘ishlangan nutqi tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *sinxron tarjima, texnik atamalar, tarjima texnikalari, muammo va yechimlar, texnik matnlar.*

Sinxron tarjima turli sohalarda, jumladan, texnik matnlarni tarjima qilishda ham keng qo‘llaniladi. Ammo texnik tarjimada atamalarni aniqlik bilan ifoda etish va qabul qiluvchi tomon uchun maqbul tarjimani taqdim etish muhimdir. Texnik tarjima – ilmiy, muhandislik, texnologiya, va boshqa texnik sohalar bo‘yicha matnlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayoni. Texnik tarjima oddiy tarjimadan farqli ravishda maxsus bilim va mahorat talab qiladi, chunki unda ko‘plab maxsus atama va iboralar uchraydi. Texnik tarjima qilinganda mazmun aniq va to‘g‘ri aks ettirilishi, leksik birliklar esa aniq tanlanishi kerak. Ushbu maqolada sinxron texnik tarjimada duch kelinadigan texnik atamalar va iboralar tahlili keltiriladi.

Texnik atama va iboralar turlari haqida ilmiy adabiyotlarda turli olimlar va tilshunoslarni turli fikrlarni ilgari surishgan. Vladimir Vinogradov<sup>12</sup> texnik atamalarni ikki turga ajratadi: umumiy texnik atamalar va maxsus texnik atamalar. Umumiy texnik atamalar ko‘proq fanlararo qo‘llaniladi, maxsus texnik atamalar esa faqat muayyan sohaga xos bo‘lgan atamalar sifatida tushuntiriladi. Valentin Komissarov texnik iboralar va atamalarning tarjimasida ularning to‘g‘ri tanlanishiga e’tibor qaratadi. U texnik iboralarni an’anaviy va muayyan fan sohasiga oid deb ajratib o‘rganadi, chunki ba’zi texnik iboralar umumiy tilga kirib ketgan, ba’zilari esa maxsus sohalarda qo‘llaniladi<sup>13</sup>. Ibrohim Haqqulov va Turg’unqul Qahhorov texnik iboralarni tarjima qilishda ularning maxsus va umumiy atamalarga bo‘linganligini hisobga olish muhimligini ta’kidlaydilar. Ular tilning o‘ziga xos jihatlarini saqlab qolgan holda texnik atamalarning aniq tarjima qilinishini talab qiladilar<sup>14</sup>. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga texnik

<sup>12</sup> Vinogradov "Osnovy obshchey i leksicheskoy semantiki" (Umumiy va leksik semantika asoslari, 1978y)

<sup>13</sup> Komissarov "Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)" (Tarjima nazariyasi: lingvistik aspektlar. 1990y)

<sup>14</sup> Ibrohim Haqqulov "Texnik tarjima nazariyasi va amaliyoti" (Theory and Practice of Technical Translation)



tarjima sohasida maxsus termin va iboralar ustida izlanish olib borgan bir qator tilshunoslar va mutaxassislar mavjud. Ulardan ba'zilari texnik terminologiyani o'zbek tiliga to'g'ri va aniq tarjima qilish uchun nazariy va amaliy ishlar olib borishgan.

Tilshunos va tarjimon Ibrohim Haqqulov texnik atamalarni o'zbek tiliga moslashtirish va yangi atamalarni ishlab chiqishda katta hissa qo'shgan. U ko'plab lug'atlar yaratib, o'zbek texnik tarjimasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Uning "Texnik terminlar lug'ati" kitobi o'zbekchalashtirilgan maxsus atamalarni o'z ichiga oladi. Misol uchun, u ingliz tilidagi "computer" atamasini o'zbek tilida "kompyuter" shaklida moslashtirgan. Haqqulov bu atamani o'zbek tilida xalqaro shaklda qoldirib, o'zbek fonetik qoidalariga moslashtirgan. Boshqa misollar, "Voltage" – Kuchlanish, "Frequency" – Chastota, "Generator" – Generator, "Transmission" – Uzatish. Bu olimlar energetika, qurilish, muhandislik kabi sohalarga tegishli atamalarni o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilish ustida ishlagan.

A.Madrahimov ilmiy-texnik tarjima sohasida ishlaydi va atama yaratishning qiyinchiliklari, xususan, o'zbek tilidagi ekvivalentlar tanlovi masalalariga e'tibor qaratadi. U texnik iboralarni asosiy tushuncha va kontekstga bog'liq tushunchalar deb ikki guruhga ajratadi<sup>15</sup>. A. Madrahimov va S. B. Kalanova o'z ishlarida texnik tarjimada maxsus atama va iboralar bilan ishlashga oid tavsiyalarni keltirishgan. A. Madrahimov, mahallilashtirish va moslashtirish bo'yicha quyidagi misollarni keltiradi: "Processor" – bu atama o'zbek tilida "protsessor" sifatida o'zlashtirilgan, lekin tarjimada uning texnik vazifasini tushuntirish kerak bo'lganda, "ma'lumotlarni qayta ishlovchi qurilma" yoki "markaziy ishlovchi qurilma" deb, aniqroq shaklda tarjima qilinishi mumkin. "Cloud storage" – Ko'pchilik bu atamani "bulutli saqlash" deb o'giradi, lekin texnik mazmuni aniqroq bo'lishi uchun "bulutli xotira" yoki "onlayn saqlash xizmati" tarzida tarjima qilinishi maqsadga muvofiqdir. "Interface" – Texnik matnlarda "interfeys" so'zi ishlatiladi, ammo Madrahimovning tavsiyalariga ko'ra, o'zbek tilida kengroq tushuntirish talab etiladigan holatlarda, "foydalanuvchi interfeysi"ni "foydalanuvchi uchun qulay ko'rinish" sifatida tarjima qilish mumkin. S. B. Kalanova esa, konseptual aniqlik bo'yicha quyidagi misollarni keltiradi: "Algorithm" – Bu atama texnik tarjimada to'g'ridan-to'g'ri "algoritm" deb tarjima qilinadi, lekin matn tushunarli bo'lishi uchun "muammoni yechish uchun bosqichma-bosqich yo'riqnoma" tarzida tushuntirish ham berilishi mumkin. "Load balancing" – Ko'pincha bu atama "yukni muvozanatlash" deb tarjima qilinadi, lekin texnik jihatdan to'g'ri tushunilishi uchun "tarmoqqa yukni teng taqsimlash" yoki "resurslardan samarali foydalanish" kabi aniqroq shakllarda ifodalash lozim. "Firewall" – O'zbek tilida "himoya devori" deb o'girish mumkin, ammo texnik tushunchaga ega

<sup>15</sup> A.Madrahimov "Fan va texnikaga oid matnlarni tarjima qilish uslubiyoti" (Methodology of Translating Scientific and Technical Texts)



bo‘lmaganlar uchun qo‘shimcha izoh talab etiladi, masalan: "tarmoqni xavfli kirishlardan himoya qiluvchi dasturiy yoki apparat vositasi" tarzida tushuntirish berilishi mumkin.

Texnik tarjima ko‘pincha maxsus soha bilimini talab qiladi. Texnik atamalarni to‘g‘ri tarjima qilish orqali o‘quvchi yoki tinglovchi matnni aniq tushuna oladi. Bunda quyidagi texnikalar qo‘llaniladi:

1. Leksik o‘xshashlik asosida tarjima - ba‘zi texnik atamalar ma’nosini boshqa tildagi leksik birliklarga o‘xshash tarzda ifodalaydi.

2. Kontekstual tarjima - ba‘zi atamalar ma’nosi faqat kontekst orqali aniq bo‘ladi, shu sababli atamaning ma’no sohasini tushunish muhimdir.

3. Terminlarni standartlashtirish - ko‘p hollarda so‘zlashuv paytida xatolarni kamaytirish uchun xalqaro standart atamalarni ishlatish kerak.

Texnik so‘zlarni tarjima qilishda bir nechta uslub qo‘llaniladi, bu uslublar matnning mazmuniga va maqsadiga qarab tanlanadi. Misol uchun, Elon Muskning texnologik va muhandislikka oid nutqini <sup>16</sup>oladigan bo‘lsak, “The Gigafactory, Tesla’s large-scale lithium-ion battery factory, is part of our strategy to enable widespread renewable energy storage, essential for a zero-emissions future.” – “Gigafactory – bu Tesla kompaniyasining katta hajmdagi litiy-ion batareyalar ishlab chiqarish zavodi bo‘lib, chiqindisiz kelajak uchun zarur energiya saqlash imkoniyatlarini yaratish strategiyamizning bir qismi hisoblanadi.” Bunda leksik o‘xshashlik asosidagi tarjimani ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, texnik atamalar boshqa tilda ham o‘xshash yoki qisman tarjima qilinadi. Masalan, “battery factory” so‘z birikmasi “batareya zavodi” sifatida tarjima qilindi. Shuningdek, “...the Model 3, designed with autonomous capabilities that rely on camera-based vision systems rather than LIDAR...” (LIDAR o‘rniga kameralar asosidagi ko‘rish tizimiga tayanadi), “In aerospace, Musk described SpaceX’s focus on reusable rockets, with the Falcon 9 demonstrating rapid and repeated reusability” (Kosmik sohada esa Mask SpaceX kompaniyasining qayta ishlatiladigan raketalariga e’tibor qaratib, Falcon 9 raketasi qayta-qayta uchirilishi mumkinligini ko‘rsatdi) gaplarini tarjima qilishda transliteratsiyaga murojaat etamiz. Ya’ni, xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan yoki mahalliy tilga to‘liq tarjima qilish qiyin bo‘lgan texnik atamalar transliteratsiya qilinadi. Masalan, “Falcon 9” yoki “LIDAR” kabi so‘zlar o‘zbek tiliga o‘zgarishsiz yoki ozgina o‘zgarish bilan kiritiladi.

Texnik nutq tarjimasida ba‘zi holatlarda esa Kontekstual tarjimaga tayaniladi. Ba‘zi texnik terminlar kontekstga bog‘liq tarzda tarjima qilinadi, ya’ni ular aniq soha uchun tushunarli bo‘lgan tarzda o‘zbek tilidagi eng yaqin mazmunga ega atamalar bilan almashtiriladi. Masalan, “autonomous capabilities” so‘zi “avtonom boshqaruv”

<sup>16</sup> 1. "Elon Musk TED Talk on Future of Tunnels and Space" (<https://www.youtube.com/watch?v=zIwLWfaAg-8>)



deb tarjima qilinadi. Texnik tarjimada shuningdek, standart atamalarni qo‘llash ham mumkin. Ba’zi texnik terminlar uchun xalqaro standart atamalar qabul qilingan va ular tarjima qilinmasdan ishlatiladi. Bunga "Gigafactory" kabi atamalar misol bo‘ladi, chunki u Tesla kompaniyasining brend nomi sifatida foydalaniladi. Bu nutqdan yana boshqa misollar keltiradigan bo‘lsak,

1. "Boring Machine" – Yer osti tunnellari qazishda ishlatiladigan bu mashinani "tunnel qazish mashinasi" deb tarjima qilish mumkin. 2. "Electric Vehicle (EV)" – Musk Tesla’ning elektr avtomobillari haqida bu atamani ishlatadi, bu atamani "elektr avtomobil" deb tarjima qilish mumkin. 3. "Hyperloop" – Muskning Hyperloop loyihasi, yuqori tezlikda harakatlanuvchi vakuum trubalar orqali ishlaydigan transport tizimi sifatida tanilgan. Bu atamani "giperloop transport tizimi" yoki "vakuum trubali tezkor transport" deb tarjima qilish mumkin. 4. "Reusable Rocket" – Bunda SpaceX tomonidan ishlab chiqilgan qayta foydalaniladigan raketalar nazarda tutiladi. Ushbu atamani "qayta foydalaniladigan raketa" deb tarjima qilish mumkin bo‘lib, bu kosmik muhandislikda xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan innovatsiya hisoblanadi. Texnik atamalarning ko‘plab turli xil ma’nolari bo‘lishi va ularning soha bo‘yicha o‘zgarishi sinxron tarjima jarayonida qiyinchilik tug‘diradi. Ayniqsa, ba’zi hollarda xalqaro muhitda ishlatiladigan standart bo‘lmagan atamalarga duch kelinadi. Ushbu qiyinchiliklarni hal qilish uchun maxsus lug‘atlar va standart terminologiyalarga asoslanish tavsiya etiladi. Yuqoridagi nutqdan misol keltiradigan bo‘lsak,

1. "Processor speed" - Bu atama bevosita "protssessor tezligi" deb tarjima qilinadi. Ammo, ushbu nutqda "ishlash tezligi"ni anglatib kelgan.

Ushbu nutqdan ko‘rinib turibdiki, texnik atamalar aniq maqsadlarni ifodalaydi va ularni to‘g‘ri tarjima qilish ilmiy matnni tushunishga sezilarli darajada yordam beradi.

Texnik tarjimada atama va iboralar bilan ishlash tarjimonning chuqur texnik bilimiga ega bo‘lishini talab qiladi, chunki bu jarayonning murakkabligi va mas’uliyat darajasi yuqori bo‘lishi mumkin. Texnik tarjimonlar sohaning texnik tomonlarini chuqur bilib, atamalarni to‘g‘ri ifodalash usullarini qo‘llashi kerak. Texnik atamalarni to‘g‘ri tarjima qilish orqali mutaxassislar matnni aniq tushuna olishi ta’minlanadi. Shuningdek, terminologiyani rivojlantirish va uni o‘zbek tiliga boyitish jarayonida ilmiy hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Sinxron tarjima jarayonida maxsus lug‘atlar va texnik sohalar bo‘yicha xalqaro standartlarga asoslangan holda ishlash muhimdir. Texnik atamalar va iboralarni o‘rganish, ular uchun aniq va tushunarli tarjimalar ishlab chiqish sinxron tarjimonlar uchun katta yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Azzamov Y.R. “Sharq tillarini o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi



2. ilmiy-amaliy konferensiya VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 24 ISSN 2181-1784.
3. Azzamov Y.R. “Terminlar tarjimasining nazariy asoslari”. Sharq tillarini
4. o‘qitishning dolzarb masalalari, IAK VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 24, ISSN
5. 2181-1784 SJIF 2022: 5.947| ASI Factor = 1.7,
6. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6653731> 2022 MJI, M:OHb. www.oriens,uz- 5. 518-
7. Abdullayeva Sh.N. G‘aznachilik sohasida qo‘llanadigan moliyaviy-iqtisodiy
8. terminlarning chog‘ishtirma tadqiqi (ingliz, o‘zbek, rus tillari misolida) Avtoref.
9. ped. nauk.–T.,2018. – 26 b.
10. Borisova L.I. Ilmiy-texnik matnlarda neologizmlarning ingliz tilidan rus tiliga
11. tarjimasini. / L.I. Borisova. - M.: VCP, 2007 yil
12. "Elon Musk TED Talk on Future of Tunnels and Space" (<https://www.youtube.com/watch?v=zIwLWfaAg-8>)
- Komissarov V.N. "Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)". - M.: Vysshaya shkola, 1990.
13. Haqqulov I., Qahhorov T. "Texnik tarjima nazariyasi va amaliyoti". - Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2019.
14. Vinogradov V.V. "Osnovy obshchey i leksicheskoy semantiki". - M.: Nauka, 1976.
15. Peter Newmark “A Textbook of Translation” (1988)
16. Susan Bassnett "Translation Studies" (1980)
17. Domestication and Foreignization in Translation Studies. Lawrence Venuti.
18. Frank & Timme GmbH Verlag für wissenschaftliche Literatur Berlin 2012.
19. "Ilmiy texnik terminologiyaning o‘zbekcha ta’rifi" 1997 yil. O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti
20. Gerd 1991;1-4
21. Gak 1972;68 -71
22. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
23. Bassnett, S. (2002). Translation Studies. Routledge.
24. Yuldashev, M. (2020). Ilmiy tarjima: nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
25. O'zbekiston Milliy Universiteti.
26. Komissarov, V. N. (1990). The Theory of Translation: Theoretical and Practical Aspects. Moscow: Higher School.